

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

UMUMTA'LIM MAK TABI O'QUVCHILARINING JISMONIY SOG'LOM TURMUSH TARZIDA TARBIYALASH.

Maxmarizayev Xurshid Otaquluvich

*Shahrisabz davlat Pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasи katta o'qituvchi*

Annotatsiya Maqolada umumta'lismaktabi o'quvchilarining jismoniy sog'lom turmush tarzida tarbiyalash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Umumta'lismaktablari, sport to'garaklari, jismoniy bilim, jismoniy tarbiya, jismoniy yuklama.

Umumta'lismaktablarda ta'lim oluvchilar o'rtasida sport to'garaklarini tashkil etish jarayoni to'garak rahbaridan, so'g'lom turmush tarzining asosi nimalardan iboratligi, uning mazmuni va tashkil qilish jarayoni, bolalarni harakatga o'rgatish metodikasini bilishni talab qiladi. Maktab yoshidagi bolalarda sport to'garaklarini tashkil etish jarayonining maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi.

Sport to'garaklarini tashkil etish, o'quvchilarining sog'lom turmush tarzida tarbiyalash jarayonida umumiyl vazifalar hal qilinadi.

Umumiyl vazifalar – bilim berish, jisman sog'lomlashtirishdan iborat bo'lib, Davlat ta'lismastarti dasturidagi maxsus vazifalar tarzida hal qilinadi.

vazifalarga quyidagilar kiradi:

1) o'quvchilar organizmining sog'ligini mustahkamlash, aniq tartib asosida rivojlantirish va chiniqtirish;

2) turli xil meh'nat faoliyatiga tayyor bo'lish uchun yoshga xos bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

3) sog'lom turmush tarzi malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirish;

4) o'quvchilarining iqtidori va qiziqishlarini inobatga olib, sport turlari bo'yicha yangi bilimlarni berish;

5) o'quvchilarini jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishiga qiziqtirish;

6) o'quvchilarini sport turlari bo'yicha faol qilib tarbiyalash va ularda tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish;

Bu vazifalar ma'naviy tarbiyaning elementlari hisoblangan axloqiy ruhiy estetik va mehnat tarbiyalarining vazifalari bilan birgalikda o'quvchilarini yoshini ulg'ayishi,

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

jisman tayyorgarligiga qarab o‘qitishning ayrim etaplarida aniqliklar kiritiladi va maktab yoshining quyidagi 3 xil guruhidagi ta’lim tarbiya ishlarida hal qilinadi.

Maktab yoshining 6 (7), (10) 11 yoshlilarda (1-4 sinflar) organizm tabiiy rivojlanishida bo‘ladi. Biz uni garmonik rivojlanishini yo‘lga qo‘yishimiz kerak bo‘ladi. Markaziy nerv tizimidagi boshqarish funksiyasi, harakat tayanch apparati faoliyati ishini, yurak-tomir, nafas olish organlari ishini yanada rivojlantirishga e’tibor beriladi, bulardan tashqari qomatni to‘g‘ri tuta bilishga o‘rgatiladi. Bu jarayonga shaxsiy gigiyena qoidalariga oid bilimlar qo‘sib berish bilan tarbiya jarayoni yo‘lga qo‘yiladi.

12-15 yoshlilarda (5-9 sinflar) jismoniy mashqlar o‘sayotgan yosh organizmga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun jismoniy sifatlarni rivojlanishiga qulay imkoniyatlar ochilgan bo‘ladi.

Sport to‘garaklarining jismoniy bilimlar berish vazifasi hayotda uchraydigan harakat malakalarini ratsional texnikasi bilan tanishtirish (gimnastika, yengil atletika, sport o‘yinlaridan Futbol, Voleybol, Gandibol va sport taktikasi)ga oid oz oz bo‘lsa ham nazariy tushuncha berishdir. Sport turlari bo‘yicha shug‘ullanish natijasida jismoniy mahoratini oshirish, sog‘lom turmush tarzini inson hayotidagi roli va ahamiyatini tushuntirish jarayoni yo‘lga qo‘yiladi. Asta sekinlik bilan tashkilotchilik qobiliyati takomillashtiriladi, musobaqa qoidalari o‘zlashtiriladi, hakamlik qilish malakalari rivojlantiriladi va chiniqtirish maqsadida tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalanishga o‘rgatish lozim bo‘ladi.

16-18 yoshdagi umumta’lim maktabining o‘quvchilari organizmi yoshi ulg‘aygan sari baquvvatlashadi. Sport to‘garaklari turlari bo‘yicha esa bu jarayonni yanada kuchaytirishga yo‘naltiriladi. Sport turlari bo‘yicha jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish, maktab ta’lim tizimida ish qobiliyatini yaxshilash, o‘z tanasini boshqara olish, kuch, tezkorlik, chaqqonlik va boshqa har tomonlama jismonan garmonik tarbiya alomatlarini chuqurlashtirishga e’tiborni qaratadi.

Organizm o‘sib borar ekan uning funksional imkoniyatlarini oshib borishi ham tabiiy. Oldin egallangan harakat malakalari zahirasi bazasida yangi, keyin egallanishi lozim bo‘lgan harakat malakalari uchun poydevor yaratiladi. Bu yoshdagilarda jismoniy madaniyat sohasidagi bilimlarni boyitish, sport trenirovkasi asoslari, sportchini o‘z-o‘zini nazorat qilishi qoidalariga o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Sport to‘garaklari vositalari. 6 (7) - (10)11 yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi uchun asosiy vosita qilib asosiy gimnastika, harakatli o‘yinlar, velosipedda yurish, ekskursiya va sayohat hamda tabiat qo‘ynida o‘ynaladigan o‘yinlar va jismoniy mashqlar olingan. Bu yoshdagilarda suzish, tennis va futbol bo‘yicha muntazam

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

mashg‘ulotlar uysushtirish mumkin. Sog‘ligi yomonlashgan bolalarga maxsus mashg‘ulotlar – davolash gimnastikasi tarzidagi yoki maxsus tibbiy guruhgaga ajratilgan bolalar uchun alohida mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘yiladi.

16-18 yoshdagilar uchun jismoniy tarbiya vositasi qilib asosiy gimnastika (kichik yoshdagilarga nisbatan og‘irroq mashqlar bilan), tanani boshqarish mashqlari, to‘siqlardan oshish, jamoa bo‘lib o‘ynaladigan harakatli o‘yinlar (osonlashtirilgan qoidada) va boshqalar olinadi. Bu yoshda sport o‘yinlariga, gimnastika, yengil atletika, futbol, voleybol, gandibol, yugurishdek sport turlarida bolalar yuqori natijalariga erishishlari mumkin. Bularidan tashqari ularda turistik poxodlar, piyoda yurish, krosslar hamda dalada o‘ynaladigan va harbiylashtirilgan o‘yinlar o‘tkazilishi mumkin.

16-18 yoshdagilar uchun asosiy va sport gimnastikasi va boshqa sport turlari vosita bo‘ladi. Umumiy jismoniy tayyorgarligining ko‘rsatkichlari “Alpomish” va “Barchinoy” kompleksi talablari va normalari darajasija bo‘lishi lozim. Bularidan tashqari sayir va poxodlar uysushtirilishini tarbiya jarayonidagi samarasi katta bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 7 fevraldagi PF-4947sonli Farmoni.
2. N.T.To‘xtaboyev,/Jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoratini
3. Urinboevna, U. Z., Burkhanovich, D. B., & Ismailovna, Y. F. (2022). New technologies for the development of strength qualities Youth. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 220-224.
4. Саруханов, А. А., Азизов, М. А., & Аминов, Б. У. (2023, January). Новые технологии для развития силовых качеств у студентов. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (Vol. 2, No. 1, pp. 217-225).
5. Dexqonov, B. (2023). Preparation of future physical education teachers for innovative activities. Models and methods in modern science, 2(12), 82-86.
6. Қувватов У.Т Якубжонов, И. А., & Шокиров, Ш. Г. (2022). " Развитие воспитательной работы в студенческой футбольной команде.". In International conference: problems and scientific solutions (Vol. 1, pp. 140-147).
7. Umidovich, A. B. (2023). Unusual volleyball training sessions. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(06), 1-4.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

8. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "The importance of functional training in the athlete training system." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 261-264.
9. Toxirjonovich, Arabboyev Qaxramon, et al. "THE ROLE OF SPORT IN PEOPLE'S HEALTH." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
10. Arabboyev, Q. T. "Sportchilarni tayyorlashda funksional tayyorgarlikning ahamiyati: 10.53885/edinres. 2022.75. 29.012 QT Arabboyev." Научно-практическая конференция. 2022.
11. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "SPECIFIC FEATURES OF THE APPROACH TO STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS ON THE BASIS OF THE PRINCIPLE OF INDIVIDUALIZATION." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 269-273.
12. Араббоев, К. Т. "Особенности адаптации студентов высшей физкультурно-педагогической школы к учебной и спортивной деятельности." Педагогические науки 5 (2011): 128-131.
13. MURATOVA, GULIYA RIMOVNA, RUZEL MULLAKHMETOVICH KHABIBULLIN, and AYGUL URALOVNA BAKIROVA. "COORDINATION ABILITIES OF POWERLIFTERS." Будущее науки-2019. 2019.
14. Rashitovna, Muratova Gulnara. "Problems of Using the Technology of Integrated Modular Training of Students in Physical Education Classes at The University." Genius Repository 26 (2023): 104-106.
15. Муратова, Г. Р. "ИНОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." Science Promotion 4.1 (2023): 30-35.
16. Муратова, КГПИ Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЬЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.
17. Муратова, Гулнара, and Вагаршак Данелян. "ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В СРЕДНИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.22 (2023): 23-27.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

18. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.
19. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.
20. УПРАЖНЕНИЯХ, САМОКОНТРОЛЬ В. ФИЗИШЕСКИХ. "JISMONIY YUKLAMALARDA O'ZINI-O'ZI NAZORAT." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 722.
21. Умарова, Ф. А., З. А. Умарова, and А. А. Умаров. "Повышение эффективности обучения за счет использования электронного обучения в классе." Библиотека в пространстве современной культуры. 2020.
22. Умаров, АА-К. "СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРЕДСТАРТОВОЙ МЫШЕЧНОЙ РАБОТЫ СПОРТСМЕНА КАК СПОСОБ ПОДГОТОВКИ К УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫМ ЗАНЯТИЯМ И СОРЕВНОВАНИЯМ." ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ В СИСТЕМЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ. 2021.
23. Artikovna, Abdurahmonova Malohatkhan. "USE OF INTERACTIVE METHODS AND THEIR EFFECTIVENESS IN TEACHING CHEMISTRY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.2 (2023): 507-510.
24. Умаров, Абдусамат Абдумаликович. "Феноменологическое Поле Гендерной Идентичности Спортсменок." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.12 (2022): 15-18.